



Axmad Yassaviyning asarida ilgari surilgan ta'lif tarbiya va axloq masalalari.

JDPI kata o'qituvchisi

Muxammadiyeva S.V.

Tasavvuf ta'lifoti pedagogik g`oyalar taraqqiyoti bilan uzviy bog`liq, tasavvufdagi asosiy g`oyalar hozirgi pedagogik nazariya va amaliyotining ham muhum qirralari bo`lib hisoblanadi.

Mustaqillikka erishib, ma'naviyat va ma'rifat masalalariga birinchi darajali ahamiyat berishimiz, mustaqillikni mustahkamlash vazifalari, tarbiya sohasida sog'lom avlod, ma'naviy barkamol inson, komil inson kabi tushunchalarga izoh berishni, ularning mohiyatini ochib berishni taqozo etmoqda. Ular mohiyati birday tushunchalar. Insonni to'g'rilikka, halollikka, poklikka, vatanparvarlik va insonparvarlikka, ezgulikka, yuksak axloqlilikka yo'llash bu tushunchalarning mohiyati va mazmunini tashkil etadi. Bu masalaga hozirgi kunda birinchi darajali ahamiyat berishimizning boisi ma'naviy barkamol insonlarga buyuk kelajakni yarata oladilar. Shuning uchun ma'naviy barkamol insonni, sog'lom avlodni tarbiyalash muhim va dolzarb masala.

Sog'lom deganda, biz faqatgina jismonan baquvvat farzandlarimizni emas, balki ma'naviy boy avlodni, aqliy rivojlangan, axloqiy pok, ma'rifatli farzandlarni tushunishimiz lozim. Bunday kishilar o'zlarida iymon va insof, mehr-oqibat, shafqat va rahmdillik, uyat va andisha, or-nomus, o'zaro hurmat, yuksak Vatanparvarlik, eliga va xalqigasadoqat kabi qadriyatlarni mujassamlashtirgan bo'lishlari lozim.

Barkamod inson haqida gapirganda, uning o'z haq-huquqini taniydigan, o'z kuchi va imkoniyatlariga tayanadigan, atrofdagi voqealarga mustaqil munosabat bildira oladigan, shaxsiy manfaatini mamlakat va xalq manfaati bilan uyg'un holda ko'radigan kishi bo'lishi lozim deb hisoblaydi¹.

Ma'naviy barkamol inson shon-shuhrat, mansab, moddiy boylik ketidan quvmaydi. Yuksak darajadagi ma'naviyatga ega inson – fidoyilik, jasorat, mardlik, o'z xalqini sevish, Vatanni

qadrlash, ajdodlaridan faxrlanish kabi olijanob fazilatlari bilan ajralib turadi. Insonning insonligi, avvalo, uning ma'naviy-axloqiy jihatdan barkamolligi bilan belgilanadi. Ma'naviy-axloqiy barkamollikning asosiy qirralari quyidagilar: ota-onasi, farzandlari, qarindoshlari, xullas butun oila a'zolari qo'ni-qo'shnilar, mahalla-kuyi va butun mamlakat xalqi farovonligi haqida qayg'urish; tevarak-atrofdagi kishilarga kerakli bo'lishga intilish; odob-axloqi, fe'l-atvorini yoqimli qilishni insoniy burch deb hisoblash; ajdodlarimizdan qolgan madaniy merosni qadrlash; milliy qadriyatlarni e'zozlash; vatanparvar, xalqparvar, insonparvar bo'lish; birovning og'irini yengil qilishga intilish; davlat qonunlari va Konstitutsiyani hurmat qilish; diyonat, adolat, mehr-shafqat va ezgulikni himoya qilish; va'daga vafo qilish va boshqalar kiradi.

Komil insonning xislat va fazilatlari:

Komil insonning umumiyligi xislatlari: Yoqimlilik, ko'rksamlik, jozibadorlik, hurmatga sazovorlik, o'ziga xoslik, yetuklik, jiddiylik, madaniyatllilik, tarbiyalanganlik va boShqalar.

Komil insonning axloqiy fazilatlari: Insonparvarlik, do'stlik, hamxo'rlik, jonkuyarlik, samimiylilik, odamiylik, bolajonlik, iymonlilik, fidokorlik, xushmuomalalik, boadablik, iltifotlilik, kechirimlilik, mehmondo'stlik, halollik, to'g'rilik, diyonatlilik, mehnatsevarlik, vatanparvarlik va boshqalar.

Ishbilarmonalik xislatlari: Ishchanlik, tirishqoqlik, mas'uliyatlilik, insoflilik, halollik, malakalilik, epchillik, uddaburonlik, saranjom-sarishtalik, tadbirkorlik, aniqlik, tejamkorlik, barkamollik, ta'masizlik va boShqalar.

Zukkolik, idrokllilik fazilatlari: Zehnlilik, bama'nilik, xotirjamlik, sog'lom fikrlilik, donishmandlik, sezgirlik, zakovatlilik, topqirlik, notiqlik, tanqidiylik, dadillik, savodxonlik, qiziquvchanlik, ishqibozlik kabilalar.

Sobitlik xislatlari: faollik, qat'iyatlilik, tezkorlik, jo'shqinlik, sabotlilik, bir so'zda turishlik, barqarorlik, botirlik, dovyuraklik, intizomllilik, jiddiylik, o'zini yo'qotmaslik, sovuqqonlik, o'ziga talabchanlik, kamsuquqlik, o'zini-o'zi idora eta olish.

Ehtiroslilik xislatlari: ko'tarinkilik, kulib turuvchanlik, xazinlik, kelajakka ishonch, ezgulik, kek saqlamaslik, olijanoblik, otashinlik, nozik tabiatlilik, xayolilik, xijolatpazlik, iffatlilik va hakoza².

² С.Отамуродов ва бошқ. Маънавият асослари.Т., 2000й, 170-171-бетлар.

Ayni mustaqilligimiz gullab yashnayotgan bir vaqtida, ana shu erkimizni qudratli va intelluktual salohiyatini yanada yuksaltirish uchun buyuk ajdodlarimiz qoldirgan boy ma`naviy merosini chuqur o`rganish biz uchun ham farz ham qarzdir.

Xuddi shuningdek tasavvuf ta`limotida ham komil insonga xos fazilatlar teran ifodalangan.

Ulardan ayrim misollar keltirib o`tamiz.

Tasavvufda adolatparvarlik, kamtarlik fazilatlari ulug`lanadi. Buyuk tariqat asoschisi Qul Xo`ja Ahmad Yassaviy Haq vasliga yetolmagani sababini yaxshi angraydi va Ollohga bosh egadi, inson har qancha buyuk bo`lsa ham, lekin Olloh amri oldida ojizdir, deydi u.

Oltmisch uchga yoshim yetdi, o`tdim g`ofil,

Haq amrini mahkam tutmay o`zim johil,

Ro`za, namoz qazo qilib bo`ldim koxil,

Yomon izlab, yaxshilardin kechdim mano.

Yassaviy bu o`rinda g`aflat bosib, johillikdan suyet bo`ldim, demoqchi.

G`aflat muddati hayotining 63 yili. Johilligiga sabab Olloh amridan kechish: dindan oldingi davr - joxiliya deb atalgan.

Tanikli olim Hamidulla Karamatovning «Qur'on va o`zbek adabiyoti» nomli risolasida Axmad Yassaviyning hikmatlari tahlil kilinib, Ollohga yetkazuvchi «muhabbatning jomin ichmay, axli ayol, xonumondin tugal kechmay», «Shayton g`olib, jon berarda shoshdim mano», kabi satrlari sharxlanadi.

Tasavvufda haqiqiy sevgi - Olloh sevgisi yangi pedagogik tafakkurning asosiy tarkibidir.

Qur'onda shunday deyiladi: «Ayting (ey xabibim)»: «Agar Ollohni sevsangizlar, menga (Ya`ni Rasululloxga) ergashingizlar, shunda Olloh sizlarni sevgaydir...» («Oli Imron», 31).

Jonim qudrati qo`lida bo`lgan Ollohga qasamki, jannatga kira olmaysizlar, toki mo`min bo`limguncha; mo`min bo`la olmaysizlar, toki bir-birlaringizni yaxshi ko`rmaguncha, deyiladi hadisda.

Professor As`ad Jushon xazratlarining «Muvaffaqiyat yo`lida sevgining kuchi» asarida (tarjimon Mirza Kenjabek) Islomning asl mohiyati ezgulik va mexr-muhabbat ekanligi uqtirilgan, qanday qilib Ollohning sevimli bandasi bo`lish yo`llari, ma`naviy kamolot asoslari bayon etilgan.

Tasavvuf — bu muhabbatdir. Muhabbat yo`li esa muvaffaqiyat yo`lidir.

Sevgilarning eng oldinda keladigani, eng keraklisi, eng go`zali, eng yuksagi Olloh sevgisidir, chunki Olloh eng go`zal sifatlar mo`jizakori, ijodkori, san`atkori, bajaruvchisi va xolikdir! Inson yaxshiroq

va teranroq o`ylasa, o`zi sevgan barcha go`zalliklarning ortida mulkning mutloq sohibi, butun olamlarning Robbisi - Parvardigori-Zul-jaloli val-jamol hazratlarini ko`rgay.

Yangi pedagogik tafakkur - bu Olloh muhabbatidir. Olloh muhabbati esa banda uchun har turli xayrning, yaxshiligu go`zallikning asl bosh manbai, bitmas-tuganmas shavq, zavk va kuch-quvvat omili. Olloh sevgisiga erishgan qul avliyo bo`lgay, olim bo`lgay, komil bo`lgay, xayrli inson, xayrli farzand bo`lgay, xayrli ota-onasi, xayrli qo`shni va xayrli do`sht bo`lgay.

Olloh sevgisiga erishmagan qul esa bemaza bo`ladi, qurs-qo`pol bo`ladi, buzg`unchi, osiy bo`ladi, fojir, zararli bo`ladi.

Muxammad As`ad Jushon muhabbat ham bir ibodatdir, do`slik, birodarlik ham bir ibodatdir, odatdag'i ibodatlarning eng asli va savoblisidir, deydi. Ikki inson birodar bo`lsa, Olloh taolo martabasi pastroq bo`lganini o`sha birodari martabasi darajasiga ko`taradi.

Bu islomdir, butun umring sening, ibodat xoliga kelgay, Xudo deb qilganing har ish va niyatining ham sening, ibodatdir.

Sevib, sen, faqat do`slik bilan dillarni obod et. Agar Olloh, uchun sevsang, sen, muhabbat xam ibodatdir!

Ishq bo`lmasa, ikki jahon bulmasun, deydi Mir Alisher Navoiy hazratlari.

Har ne qilsang, oshiq qilgil, Parvardigor, deydi Yassaviy. Bundan tashqari, yangi pedagogik tafakkurda faqirlilik maqomi asosiy o`rin tutadi. Buni biz Yassaviyning «Faqirnoma» asarida bayon etilganini ko`ramiz. «Faqirnoma»da qul Xo`ja Axmad Yassaviy tasavvufdagi tariqat sulukini bayon qiladi, bu Payg`ambarimiz (s.a.v)ning «Al-faqru-faxri», «faqirlilik-faxrimdir», degan hadisiga asoslangan. Faqirlilikda qanoat, sabr-tokqat qilmok kerak.

Yassaviy faqirlilik mavzuini Payg`ambarimiz hadislariga bog`lab rivojlantirdi.

Ota-onalaridan yetim qolgan Payg`ambarimiz amakilarining dushmanligidan kochib, Madinaga xijrat qiladilar. G`oliblik tuzini tatib, islam dinini rivojlantiradilar, yetim-yesir, kambag`allar boshini silab, Ollohga va insonlarga habib bo`ladilar va shunday ezgu amallar orqali Ollohga erishadilar. Xudoga yaqinlashuv esa tasavvufning asosiy maqsadi ekanligi, Yassaviy shunga erishish uchun o`z umrini bag`ishlagan. Ammo bu nafsoniy maqsad emas, balki mavjudotga mehr-muruvvat etmoq timsolidir. Shu bois insoniy fazilatlar burjini (yangi pedagogik tafakkurni) Yassaviy kuyidagicha tushunadi:

Oqil ersang g`ariblarning ko`nglin ovla,

Mustafodek elni kezib tim kovla.

Boshqa bir hikmatida allomaning bu fikri yanada rivojlantirilgan:

G`arib faqir yetimlarni Rasul so`rdi,
O`Shal tuni me`roj chiqib diydor ko`rdi.
Qaytib tushib garib yetim izlab yurdi,
Gariblarning izin izlab tuydim mano.

Qur'oni karimda tarannum etiladigan umuminsoniy qadriyatlardan biri yetim-yesirlarga raxm qilishdir. Buning dolzarbligi shundaki, hozir boy-badavlat yashayotganlar ham kambag`allarga, yetimlarga, yolg`iz qolganlarga yordam berishi kerak.

Turkiy tasavvuf ilmining asoschisi Qul Xuja Ahmad Yassaviyning «Faqirnoma»si, hikmatlari o`zining ramziyligi, majoz san`ati va so`z xazinasiga boyligi tufayli umuminsoniy qadriyatlarimizga, alalxusus, islom va pirovardida jahon madaniyatiga ulkan hissa qo`shib, turli falsafiy oqimlarning shakllanishini taqozo etdi. Yassaviy hikmatlari turkiyzabon milliy qadriyatlarimizga keng o`rin berib, sanoqsiz muridlar qalbidan joy olib kelmoqda.

Tasavvufda nafshi tiyish, ishq, haqiqat - asosiy mavzudir. Islom dinida so`fiylik oqimi, darveshlar Payg`ambar davridayoq yuzaga kelgan. Sufiyalar shariat qoidalarini o`rganib, bu bilan cheklanmay, yana ma'rifat va haqiqatga, Haqqa yetishga intilganlar. Umuminsoniy qadriyatlarlan biri — taqvoga sufiylar katta ahamiyat bergenlar. Zuxud va taqvo ko`ngilni fony dunyo gunohlaridan: g`araz, ta`nalardan tozalash va Xudo buyurganiga amal qilib, Olloh, ma'n etgan ishlardan saqlanish demakdir. Bizning fikrimizcha, ilohiy ishq har qanday g`arazli manfaatlardan xoli bo`lishi zarur.

Tasavvuf ta`limotiga ko`ra, borliqdagi barcha xilqatlarda, xususan, odamzodda ham ilohiy zarralar bor. Sufiyning maqsadi — ko`ngildagi iloxiy zarralarni, uzoq va mashaqqatli poklanish yo`lidan borib, yana Ollohga qaytarishdan iboratdir. Ishqning bir nechta turlari, bizning fikrimizchaquyidagilardir:

1. Haqiqiy ishq, Ya`ni odamnnng Ollohga bo`lgan ishqqi.
2. Majoziy ishq, Ya`ni odamning odamga bo`lgan ishqqi.
3. Odamning borliqqa, bor go`zal mavjudotga bulgan ishqqi.

Bularning majmuasi - ilohiy ishqdir. Bu ishq hayotda juda kamdan-kam odamga, mingtadan bittaga muyassar bo`ladi. Bu yo`lda poklik va vafodorlik talab qilinadi. Vafosizda ishq bo`lmaydi. Olloh taolo vafosizga ishq bermaydi. Oshiq odamning dardi- kuchli bo`ladi. «Ishqsizlarning ham joni yo`q, ham imoni yo`q».

Ishq dardini talab qildim, darmoni yo`q,
Ishq yo`lida jon berganning armoni yo`q.
Ishk yo`lida jon bermasa imkoni yo`q.
Har ne qilsang, oshiq qilgil, Parvardigor!
-deydi Qul Xo`ja Ahmad Yassaviy.

Bu mavzuni davom ettirib, Navoiy hazratlari «Hayratul abror» asarining X1-bobida yurak nidosining aks sadosini shunday ta'riflaydi:

Bulmasa ishq ikki jahon bo`lmasun,
Ikki jahon demaki, jon bo`lmasun.

Xulosa qilib aytganda, ilohiy ishq shafqat ko`ngli pok, Olloh yo`lida beg`araz jasoratlar ko`rsatuvchi valiy odamlarga nasib etadi. Ishq egasi ko`nglini sonsiz illatlardan tozalashi darkor. Buning uchun odam o`zi bilan o`zi (boshqa bilan emas) muttasil olishmog`i kerak, nafs, g`araz, kibru havo, ta'magirlik ajdarlarini yengmog`i zarur. O`ziga tanqidiy nazar bilan qarab, o`ziga qat`iy ta'nayu dashnomlar berib turmog`i shart.